

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK 33M(575.9)

KAMOLOV ALISHER AKROM O'G'LI

**Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayoni rivojlanishining zamonaviy
bosqichida iqtisodiy o'zgarishlar tahlili**

**5A231101- “Jahon iqtisodiyoti (mintaqalar va faoliyat turlari bo'yicha)”
mutaxassisligi bo'yicha**

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof.Bekmurodov A.SH.

Toshkent – 2021


Annotatsiya: "Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining zamonaviy bosqichida iqtisodiy o'zgarishlar tahlili" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasida globallashuv jarayonining zamonaviy bosqichida jahon iqtisodiyoti va undagi o'zgarishlarning nazariy asoslari, shuningdek Xitoy iqtisodiyotida amalga oshirilgan iqtisodiy o'zgarishlar hamda O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari va iqtisodiy faoliyatini tahlil qilingan. Hozirgi kunda global muammolar va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri doirasida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlarini tanlab olish dolzarb mavzu hisoblanadi. Yuzaga kelgan global muammo- COVID-19 virusining jahon iqtisodiyotiga ta'siri hamda O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, inqirozni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar batafsil yoritilgan. O'rganilgan tadqiqot ishi yuzasidan tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Annotation: The master's dissertation on "Analysis of economic changes in the modern stage of globalization in the world economy" analyzes the theoretical foundations of world economy and their stages of development, as well as economic changes in China, as well as foreign economic relations and economic situation in Uzbekistan on modern steps of globalization. Today, in the context of global problems and their impact on the national economy, the choice of direction of socio-economic development is a topical issue. The global problem - the impact of the COVID-19 virus on the world economy and the impact on the economy of Uzbekistan, the measures taken to prevent the crisis are described in detail. Appropriate conclusions and recommendations have been developed based on the research work.

Magistrlik dissertatsiya ishi "Jahon iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. _____-sonli bayonnoma "_____" _____ 2021-y.

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. Bekmurodov A.SH

Magistr: Kamolov A.A.


imzo

imzosana
25.06
sana
25.06

"Himoyaga tavsiya etiladi"

"Jahon iqtisodiyoti" kafedrasini

mudiri dot. Ismailova N.S.

"25" iyun 2021-yil.

Himoya 2021-yil "28" 06 soat 14:00 da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA.

KIRISH.....	4
I BOB. JAHON IQTISODIYOTI VA UNING GLOBALLASHUVINING NAZARIY-ILMIY ASOSLARI.....	12
1.1. Jahon iqtisodiyoti tushunchasi, mazmuni va mohiyati.....	12
1.2. Jahon iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	18
1.3. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va uning yo'nalishlari.....	23
I bob bo'yicha xulosa.....	29
II BOB. GLOBALLASHUV JARAYONI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY BOSQICHIDA XITOIY XALQ RESPUBLIKASIDAGI IQTISODIY O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	30
2.1. Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanishininng o'ziga xos jihatlari.....	30
2.2. Globallashuvning yangi bosqichida Xitoyning yangi iqtisodiy rivojlanish strategiyasi tahlili.....	45
2,3. Xitoyning iqtisodiy rivojlanish dasturlari va ularning asosiy yo'nalishlari	54
II bob bo'yicha xulosa.....	60
III BOB. Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari.....	62
3.1. Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishi tahlili.....	62
3.2. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosati va iqtisodiy islohotlarining o'ziga xos jihatlari.....	77
3.3. Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishidagi mavjud muammolar va istiqbollari.....	87
III bob bo'yicha xulosa.....	92
Xulosa.....	93
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	97
Ilova.....	

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotini globalizatsiya jarayonlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu jarayonning rivojlanishi nafaqat milliy darajada balki xalqaro darajadagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlarga ta'sir qilmoqda. Xususan, iqtisodiyotga iqtisodiyotni raqamlashtirish, yashil iqtisodiyot kabi jarayonlarning kirib kelishi ham globallashuv jarayoni natijasidadir.

Hozirgi kunda global muammoga aylangan koronavirus infeksiyasining avj olishi butun dunyo iqtisodiyotiga ta'sir qilmoqda. Bunday vaziyatda mamlakatlar iqtisodiy holatini yaxshilash uchun turli iqtisodiy siyosatlarni amalga oshirmoqdalar. Xususan, yaqin kunlarda bo'lib o'tgan Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 14-videokonfrensiya sammitida ham iqtisodiyotda elektron tijoratni rivojlantirishga ahamiyat berish kerakligi to'g'risida takliflar bildirildi. Bu esa globallashuv jarayonlarining zamonaviy bosqichida iqtisodiy o'zgarishlar tahlilini o'rganish dolzarb ekanligini anglatadi.

Globallashuv jarayonlarini iqtisodiy o'zgarishlarga ta'sirini yanada chuqurroq bilish va o'rganish, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlarining zamonaviy bosqichidagi o'zgarishlar tahlilini amalga oshirishda va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'nalishlarini belgilashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev joriy yilning 4-mart kuni Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 14-sammitidagi videoanjumanda so'zlagan nutqida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish masalasiga to'xtalib: "Raqamli texnologiyalar va elektron tijoratni keng joriy qilish, bir-birini o'rnini to'ldiruvchi nuqtalarni topish iqtisodiy aloqalarni rivojlanishiga olib keladi" ¹ deb ta'kidladilar.

Globalizatsiya jarayonlari jarayonlari zamonaviy xalqaro munosabatlar rivojlanishining muhim xususiyatidir. Globallashuv jarayonlarining kundan kun

¹www.gov.uz O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy sayti – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning IHT 14-sammiti videoanjudanida so'zlagan nutqi.